BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANLARINI O‘QITISHDA CHET EL TAJRIBALARI.

Xamzaqulov Erjigit Abdubasharovich,
GulDPI “Pedagogika” fakulteti stajyor o‘qituvchisi.
Mardonova Marjona Zokirjon qizi .
GulDPI“Pedagogika” fakulteti talabasi
e-mail: xamzaquloverjigit25@gmail.com

Annotatsiya Maqolada Yaponiya va Finlandiya kabi ilg‘or xorijiy davlatlarnig ta’lim tizimi tuzilmasi , tajribalari va zamonaviy ta’lim dasturlari haqida qisqacha ma’lumotlar

etirof etilgan. Shuningdek , ta’lim tizimidagi yutuqlar va O‘zbekistonning ayni paytdagi yutuqlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar : ta’lim tizimi , tajriba , mamlakat , tuzilma , xalqaro baholash.

Abstract The article acknowledges the brief information about the structure , experiences and modern educational programs of advanced foreign education systems such as Japon and Finland . Achievements in the education system and current achievements of Uzbekistan are also described.

Key words : educational system , experience , country , strukture , international assessment.

Vatanimizda ta’lim tizimi qanchadir vaqt mobaynida mana shunday darajaga keldi.Hozirgi kunda esa bu ta’limni qayta qurish va uni yuksak darajada rivojlantirish kabi ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad maktab faoliyatini rivojlantirish , insonparvarlik tamoyillarini shakllantirish , shuningdek o‘quv tarbiya ishlar mazmunini , uning ko‘rinishi va uslublarini qaytadan yangilash va yanada takomillashtirishdir.Yangi ta’limni biz zamonaviy ta’lim desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Yangilangan ta’lim to‘la ma’noda yangicha tafakkur, sog‘lom fikr demakdir.

Ta’limdagi muvaffaqiyat va rivojlanish , aksariyat dadil harakat qiluvchilar ya’ni o‘zgaruvchi va o‘zgartiruvchilar tarafidan amalga oshadi.Shu bois ta’limda bo‘ladigan o‘zgarishlar va hamma narsa maktabga va uning tizimiga borib taqaladi . Maktab faoliyatini va ta’lim tizimini rivojlantirishda bizga chet el tajribalari samara beradi . Hozirgi kunda O‘zbekistonga ko‘plab xorijiy tajribalar kirib kelgan va bundan davlatimiz ham bu tajribalarni ta’lim tizimiga tatbiq qilmoqda. Xorijiy ta’lim tajribalaridan masalan **PIRLS** ya’ni baholash dasturi va oliy ta’lim tizimidagi Kredit modul tizimi hamda **PISA** tadqiqotlari hozirga qadar qo‘llanib kelinmoqda.Bu esa ta’lim tizimining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.Biz mana shunday tajribalarni egallab o‘zimizga olib kirib ta’lim tizimini rivojlanish smaradorligini oshirishimiz va insoniylik burchimizni bajarishimiz lozim.Biz bu vazifalarni muvaffaqiyatli tarzda hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el maktab faoliyati va tajribalarini o‘rganishdir.Chet el tajribalarini qunt bilan o‘rganish va uning asosiy mohiyati nimada ekanligini anglashimiz va biz ham bundan to‘g‘ri foydalanishimiz zarur.

Davlatimiz rahbari mamlaktda kadrlar muammosi mavjudligini va barcha sohalarga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi.Mana shunday maqsadda butun ta’lim tizimi takomillashtirilmoqda.

Maktabgacha ta’lim rivojlanayotgani maktab saboqlariga katta zamin bo‘ladi. Umumiy o‘rta ta’lim sifati ilg‘or chet el tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda.

YAPONIYA TA’LIM TIZIMI. Yaponiya ta’limida "iqtidorli o‘quvchi" tushunchasi yo‘q , chunki har bir o‘quvchi alohida iqtidor sohibidir.

Ilg‘or mamlakatlar ichida Yaponiya ta’lim tizimi o‘ziga xos yo‘nalishi yetakchi o‘rinni egallaydi.Masalan, Yaponiya ta’lim tizimining tarkibiga maktabgacha ta’lim ,boshlang‘ich maktab, yuqori o‘rta maktab, oliy ta’lim tizimlariga kiruvchi o‘quv yurtlari.

Boshlang‘ich maktabda o‘qituvchilar bolalarni tanqidga yani o‘z xulqlarining yomon jihatlarini,maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o‘rgatishadi.Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi faqat ta’lim berish bilangina cheklanib qolmay,bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta’sir etadi . Tanqid bu kelajak mevasidir.

Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o‘qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo‘lgan yagona davlat.

Majburiy ta’lim muhiti. Ta’limning bu pog‘onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘z ichiga oladi.Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko‘rsatiladi.

Yuqori o‘rta maktab 10-11-12-sinflarni o‘z ichiga oladi,bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo‘limlari mavjud.

Yuqori bosqich o‘rta maktablarda butun o‘quv jarayonida o‘quvchilar 80 ta sinov topshiriladi.O‘quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o‘z xohishlariga ko‘ra ingliz tili , texnik ta’lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi.

Universitetlariga yuqori va o‘rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o‘quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo‘linadi:1-bosqich turar joyda o‘tkaziladi, buning uchun yapon tili,matematika ,fizika ,kimyo ,jamiyatshunoslik , tarix bo‘yicha test sinovlaridan o‘tkaziladi.

Yaponiyada oliy ta’lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta’limi bilan uzviy bog‘liqdir.

Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas’uliyati ayniqsa kattadir.Ular farzandlarining aqlli ,dono va mehnatsevar bo‘lib o‘sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o‘zlarini mas’ul deb hisoblaydi.Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko‘plab metodik qo‘llanmalar va tavsiyalar nashr etiladi, radio va televideniye orqali ko‘plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir.U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo‘lib,parta ustida kitob javoni ,yoritkich, soat ,qalam qog‘oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruriy ashyolar, shuningdek kerak bo‘lib qolgan taqdirda ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o‘rnatilgan.Yaponiya o‘rta maktablarining saviyasi AQSh o‘rta maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki Yapo‘niyada ta’lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg‘unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o‘rgansa arziydigan jihatlati ko‘p. Yana bir e’tiborli tomoni – Yaponiyada faqat milliy an’analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Finlandiya va Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg‘or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o‘zlashtirilgan. Bunday tajribalar ta’lim tizimini va yurtimizning ham rivojlanishida shubhasiz qo‘l kelishi mumkin.

FINLANDIYA TA’LIM TIZIMI. Finlandiya eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi.Har qanday rivojlangan davlatning ham albatta ta’lim tizimi ham o‘zgacha tuzilishga ega bo‘ladi.Biz O‘zbekiston va Finlandiya ta’lim tizimini o‘rtasida anchagina farq bor.Ulardagi ta’lim tizimidagi bir nechta farqlarni ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston	Finlandiya
Maktab formasi majburiy.	Maktab formasi majburiy emas.
Baholash besh ballik tizimida.	Boshlang‘ich sinflarda baholash tizimi mavjud emas.
O‘quv dasturi va darsliklar davlat tomonidan belgilanadi.	O‘quv dasturi va darsliklar o‘qituvchi tomonidan belgilanadi.
Uyga vazifa mavjud.	Uyga vazifa mavjud emas. Chunki, o‘qish joyi faqat maktab deb hisoblanailadi.
Barcha o‘qituvchilar kamida “bakalavr” darajasiga ega bo‘lishi shart.	Barcha o‘qituvchilar kamida “magistr” darajasiga ega bo‘lishi shart, hamda uch bosqichli tanlovdan o‘tish lozim.
Maktab tozaligi maxsus ishchilar tomonidan nazorat qilinadi (ya’ni farroshlar mavjud).	Maktab tozaligi o‘quvchilar tomonidan nazorat qilinadi (Finlandiya maktablarida farroshlar yo‘q, barcha tozalik ishlari o‘quvchilar tomonidan, navbatma-navbat bajariladi).
Dars vaqtlari 5-6 soat (Xususiy maktablarda esa 7-8 soat).	Dars vaqti 4 soat.
Maktab o‘qituvchilari malakasi har 3yilda oshiriladi.	Maktab o‘qituvchilari malakasini oshirish har hafta 2 soatni tashkil etadi.
Maktab oshxonalarida achchiq, shirin, sho‘r, non mahsulotlari, ayrim zararli mahsulotlar sotiladi.	Maktab oshxonasida mahsulotlar bepul bo‘lib, sut, suv, meva va sabazavotlardan boshqa mahsulotlar yo‘q.

“Raqobat” tushunchasi mavjud.	“Raqobat” tushunchasi mavjud emas,Fin madaniyatida biri boshqasidan ustun degan tushunchasi qadrlanmaydi.
Tashqi nazorat va bosim mavjud.	Tashqi nazorat va bosim mavjud emas.

Finlandiya maktablarida bolalar uchun ko‘proq erkinliklar yaratilgan va bu erkinlik esa bolaning yaxshi o‘sishiga,rivojlanishiga albatta ta’siri bor .Finlyandiyada o‘quv yili avgustda boshlanadi, ya'ni 8-avgustdan

16-avgustgacha, yagona kun yo‘q. O‘quv yili may oyi oxirida yakunlanadi. Kuzgi yarim yillikda 3-4 kunlik ta'til bor, shuningdek Rojdestvo munosabati bilan 2 haftalik ta'til beriladi. Bahorgi yarim yillik fevral oyidagi "chang‘i" ta'tilini ham o‘z ichiga oladi, bunda fin oilalari, qoidaga ko‘ra, oilaviy chang‘i uchishga borishadi. Bundan tashqari, bahorgi yarim yillikda Pasxa ta'tili ham bor.Ta'lim - 5 kunlik, faqat kunduzgi smenada. Juma - qisqartirilgan kun.

Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat so‘zda baho qo‘yiladi: o‘rtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a'lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday ko‘rinishdagi baholar yo‘q.

Fin maktablarida baholar xavotir uyg‘otmaydi, ular faqat o‘quvchining o‘zi uchun kerak, qo‘yilgan maqsadga erishishda bolaga motivatsiya berish va o‘zini tekshirish uchun qo‘llaniladi. Baholar o‘qituvchi, maktab nufuziga ta'sir ko‘rsatmaydi va hech qanday ko‘rsatkichlarini buzmaydi.

Maktab hayotiga doir boshqa tafsilotlar

-Darsda bolalar parta va stolda o‘tirishi shart emas, polda (gilamda) o‘tirish ham mumkin. Ba'zi maktablarda sinflar divan va kreslolar bilan jihozlangan. Kichik maktab inshooti gilamchalar bilan ta'minlangan.

-Forma yo‘q, kiyimga nisbatan qandaydir talablar ham yo‘q, istagan kiyimda kelish mumkin. Almashtirish uchun qo‘shimcha poyabzal talab qilinadi, lekin kichik va o‘rta zvenodagi bolalar paypoqda yurishni ma'qul ko‘rishadi.

-Iliq havoda darslar ko‘pincha ochiq havoda maktab oldida, maysalar ustida yoki maxsus jihozlangan qatorlarda o‘tkaziladi. Tanaffus vaqtida kichik maktab o‘quvchilari albatta ko‘chaga olib chiqiladi.

-Uy vazifalari kamdan-kam beriladi. Bolalar dam olishlari kerak. Ota-onalar bolalar bilan dars qilishga majbur emas, buning o‘rniga pedagoglar muzey, o‘rmon yoki suzish havzasiga oilaviy borishni tavsiya qilishadi.

-"Doska oldida" o‘qitish usuli qo‘llanmaydi, bolalar materialni so‘zlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. O‘qituvchi darsga umumiy tus beradi, so‘ngra o‘quvchilar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam beradi va jarayonni nazorat qiladi. O‘qituvchining yordamchisi (fin maktablarida o‘qituvchi yordamchilari ham bo‘ladi) ham xuddi shu ish bilan band bo‘ladi.

-Daftarga qalam bilan yozish va qancha xohlasa, shuncha o‘chirish mumkin. O‘qituvchi ham vazifani qalamda tekshirishi mumkin.

Finlyandiya maktablaridagi ta'lim tizimi qisqa satrlarda mana shunday. Ehtimol, u kimgadir noto‘g‘ridek tuyulishi mumkin. Finlar mukammallikka da'vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo‘lishi mumkin. Ular mamlakatdagi maktab tizimi jamiyatdagi o‘zgarishlarga qanchalik to‘g‘ri kelishini doimiy ravishda tadqiq qilishadi.

Shunisi quvonarliki, finlarning farzandlari tunda asabiy zo‘riqishdan uyg‘onmaydi, tezroq katta bo‘lishni orzu qilmaydi, ularda maktabga nisbatan nafrat yo‘q, o‘quvchilar navbatdagi imtihonlarga tayyorlanib, o‘zlari va butun oila a'zolarini qiynamaydi. Xotirjam, sermulohaza va baxtli fin bolalari kitoblar mutolaa qilishadi, tarjimasiz (original tilda) filmlar ko‘rishadi, kompyuter o‘yinlari o‘ynashadi, rolik va velosipedlarda uchishadi, musiqa va teatr pesalari yaratishadi, qo‘shiq kuylashadi. Ular hayotdan quvonib yashashadi va buning orasida ta'lim olishga ham ulgurishadi.Ko‘rib turganimizdek hammasi oddiy,lekin beqiyosdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Boshlang‘ich ta’lim fanlarida nafaqat chet el tajribalari balki O‘zbekistonda erishilgan yutuqlar ham bu fanlarning, ta’lim tizimining yanada samarali bo‘lishiga yordam beradi, zamonaviy ta’lim dasturlari asosida o‘tilgan darslar o‘quvchilarning kelajakda yetuk kadr bo‘lishida asqotadi. O‘zbekistonda ham bu borada ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirishdagi harkatlarni kuchaytirilmoqda va bunday maqsadlarni amalga oshirish davom etmoqda .

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi"-Toshkent 2017-yil.

2.Yo‘ldoshev J.F. Xorijda ta’lim (metodik qo‘llanma)-Toshkent:1995-yil.

3. Timoti Uoker."Finlandiya ta’lim mo‘jizasi", "Global books",2023-yil.

4. Xamzaqulov, E. (2024). DERIVATIVE OF A MODULAR FUNCTION AND ITS ANALYSIS BY LEARNING METHOD. Modern Science and Research, 3(2), 943-946.

5. Xamzaqulov, E., & To’xtayeva, A. (2024). THE CONCEPT OF NUMERIC AND LETTER EXPRESSIONS IN PRIMARY GRADES. EXPRESSION WITH VARIABLE. Modern Science and Research, 3(2), 90-93

6. Raxmonov, J. T., Xamzaqulov, E. A., & qizi Xamzaqulova, S. S. (2023). BA’ZI ANIQMAS INTEGRALLARNI YECHISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA UNI TA’LIM METODI BILAN TAHLILI. Innovative Development in Educational Activities, 2(18), 87-91.

7. Xamzaqulov, E. (2024, May). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING METODIK TAHLILI. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 22-26).

8. Xamzaqulov, E. (2024, May). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING METODIK TAHLILI. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 22-26).

9. Abdubasharovich, X. E. (2024). MODULLI FUNKSIYANING HOSILASI VA UNI TA’LIM METODI BILAN TAHLILI.

10. Xamzaqulov, E. (2024, May). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNING METODIK TAHLILI. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 22-26).